



HUMAN AND CIVIL RIGHTS AND FREEDOMS IN THE NEW EDITION OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abdurakhmon Turayevich Yakubov
Professor, Karshi State University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Constitution, human rights, civil liberties, rule of law, democratic society, social justice, legal guarantees.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article provides a scientific analysis of how human and civil rights and freedoms are reinforced in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan on the basis of innovative approaches, as well as their significance in legislation and legal practice.

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HAMDA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIKLARI

Abdurahmon Turayevich Yakubov
Qarshi davlat universiteti professori
Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, fuqaro erkinliklari, huquqiy davlat, demokratik jamiyat, ijtimoiy adolat, huquqiy kafolatlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklari qanday yangicha yondashuv asosida mustahkamlangani, ularning qonunchilik va amaliyotdagi ahamiyati ilmiy tahlil etiladi.

ПРАВА И СВОБОДЫ ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНИНА В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдурахмон Тураевич Якубов
Профессор
Каршинского государственного университета

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Конституция, права человека, гражданские свободы, правовое государство, демократическое общество, социальная справедливость, правовые гарантии.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируется, каким образом в новой редакции Конституции Республики Узбекистан на основе новых подходов закреплены права и свободы человека и гражданина, а также раскрывается их значение в законодательстве и правоприменительной практике.

Kirish. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari Asosiy qonun – Konstitutsiyada to‘liq ifoda etiladi. Mustaqillik yillarida konstitutsiya asosida inson qadri ulug‘lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to‘plandi.

O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo‘lida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish uning maqsadi, ko‘lamiga monand va munosib bo‘lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o‘ta ahamiyatlidir, adolatli jamiyat qurish yo‘lida ulkan qadamdir.

Asosiy qism. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvdagi nutqida “Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir”, deb ta’kidlagan edi[1].

Shu ma’noda, referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko‘rilmagan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan sinchkovlik bilan muhokamadan o‘tkazilganligi, buning natijasida 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi

ushbu takliflar asosida shakllanganligi yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi ekanligidan dalolat beradi[2].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi xalq ovoz berganidan keyin qo'shimcha hujjatlarsiz yoki tartib- taomillarsiz, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan referendum yakunlari rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilindi va tariximizda to'g'ridan to'g'ri amalga kiritilgan birinchi hujjat bo'ldi. Buning eng ahamiyatli tomoni, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga munosabat bildirilganida barcha-ning ovozi bir xil maqomga va kuchga ega ekanligidadir. Ya'ni, Konstitutsiyani qabul qilish va ovoz berish, ma'qullash jarayonida fuqaro qaysi kasbda, qanday lavozimda ekanligidan qat'i nazar, har bir insonning tanlovi va fikri ahamiyatli va hal qiluvchi bo'ldi[3].

Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog'liq o'zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda huquqiy davlat prinsipini ro'yobga chiqarishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlar belgilandi.

Davlat faoliyati qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash uchun Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi belgilandi hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitutsiya normalariga muvofiq kafolatlandi. Bu borada, ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab- quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalanih, uy-joyga ega bo'lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilandi. Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yangi qoidalar ham yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizda o'z aksini topdi[4].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada barchaning – bir tomondan, davlat va uning organlari tizimi, ikkinchi tomondan, inson, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlari aniq va lo'nda qilib, hamma uchun tushunarli tarzda bayon etildi. O'zbekistonning yanada barqaror bo'lishiga va har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon bo'la olish qobiliyatini mustahkamlashga asos bo'ldi.

Insonga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, ozodligi, teng-ligi, erkin bo'lishi, xavfsizligi, daxl-sizligi kiradi va

bu huquqlar qonun-larda belgilanganligi yoki belgilan-maganligidan qat'i nazar, insonga azaliy tegishlidir, deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya bilan uchrashuvda ta'kidlaganidek: "Insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklari daxlsiz, ajralmasdir, ular har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi[5]".

Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr- qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilash bilan bir qatorda, ularni har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli ekanligining tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiya- mizning 19-moddasida inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi, degan muhim qoida belgilangan.

Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo'lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo'lgan huquq, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo'lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy huquq va boshqa shu kabilar kiradi.

Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi O'zbekiston a'zo bo'lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan. Ular orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari bo'yicha BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va ularga qo'shimcha protokollar, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro konvensiyalari, xalqaro gumanitar huquq konvensiyalari, YEXHTning "Insoniylik mezonlari" hujjatlari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi degan norma Ispaniya, Italiya, Sloveniya, Chexiya konstitutsiyalarida belgilangan.

Inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlash, xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash huquqiy demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan BMTning 7 ta asosiy shartnomalari va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umum-e'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu

Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi", degan insonparvar norma mustahkamlangan[6].

Konstitutsiyaga kiritilayotgan ushbu norma inson huquq va erkinliklarining O'zbekiston Konstitutsiyasi va xalqaro hujjatlarga muvofiq tan olinishini, xususan, ularni xalqaro hujjatlarda ko'rsatilgan umume'tirof etilgan normalarni amaliyotda to'g'ridan to'g'ri qo'llash, milliy qonunchilik hujjatlariga singdirish va boshqa mexanizmlar orqali ta'minlashni ko'zda tutadi.

Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga hamda Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etilishi deyarli barcha demokratik davlatlar konstitutsiyalarida belgilangan[7].

Mazkur norma, birinchidan, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarga qarorlar qabul qilishda xalqaro hujjatlar talablariga rioya etishi, ikkinchidan, fuqarolarga davlat organlari bilan munosabatlarda, shu jumladan, sud-tergov amaliyotida xalqaro hujjatlardagi normalardan foydalangan holda o'z huquqlarini himoya qilish kafolatlarini yaratadi[8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklarini himoyalash borasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Unda inson qadr-qimmatini oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etilib, davlatning barcha organlari faoliyati aynan ushbu tamoyilga xizmat qilishi belgilandi. Bu esa jamiyatda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va demokratik boshqaruv mexanizmlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://gov.uz/oz/uzedu/sections/view/25336>
2. Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent – 2023
3. A. Yakubov. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Monografiya. Qarshi. «ILM-FAN-MA'NAVIYAT», 2025. B.3.
4. A. Yakubov. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Monografiya. Qarshi. «ILM-FAN-MA'NAVIYAT», 2025. B.4.
5. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqi. 2022-yil 20-iyun. <https://president.uz/oz/lists/view/5272>
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

7. Yangilanayotgan Konstitutsiya. 100 savolga 100 javob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. – Toshkent: «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil.

8. Isayeva F. Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi! Nimalar o‘zgardi «Inson va qonun» gazetasi. 19-son, 6-may 2023-yil.